



## THE ROLE OF ECOESTHETIC VALUES IN YOUTH EDUCATION

*Ozod Azimov*

*Lecturer*

*Urgut branch of Samarkand State University*

*Urgut, Uzbekistan*

*E-mail: [ozodazimov196@gmail.com](mailto:ozodazimov196@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Ecoesthetic values, youth education, environmental protection, ecological awareness, respect for nature, sustainable development, intellectual and spiritual development.

**Received:** 31.03.25

**Accepted:** 02.04.25

**Published:** 04.04.25

**Abstract:** Ecoesthetic values play an important role in youth education as they teach to love nature and protect the environment. Through these values, young people develop ecological awareness and embrace the principles of sustainable development. Respect for nature, appreciating its beauty, conserving it, and gaining knowledge about modern ecological issues are significant for the youth. Ecoesthetic education also contributes to intellectual and spiritual development, helping them learn to live in harmony with nature and feel a sense of global responsibility.

## EKOESTETIK QADRIYATLARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ROLI

*Ozod Azimov*

*o'qituvchi*

*Samarqand davlat universitetining Urgut filiali*

*Urgut, O'zbekiston*

*E-mail: [ozodazimov196@gmail.com](mailto:ozodazimov196@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Ekoestetik qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, atrof-muhitni himoya qilish, ekologik ong, tabiatga hurmat, barqaror rivojlanish, aqliy va ruhiy tarbiya.

**Annotatsiya:** Ekoestetik qadriyatlar yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi, chunki ular tabiatni sevish va atrof-muhitni himoya qilishni o'rgatadi. Ushbu qadriyatlar orqali yoshlar ekologik ongni rivojlantiradi va barqaror rivojlanish prinsiplarini o'zlashtiradi. Tabiatga hurmat, uning go'zalligini qadrlash va uni asrab-avaylash hamda zamonaviy ekologik muammolar haqida bilim olish yoshlar uchun ahamiyatlidir. Ekoestetik tarbiya, shuningdek, aqliy va ruhiy

taraqqiyotga yordam beradi, ular tabiat bilan uyg'unlikda yashashni o'rganadilar va global mas'uliyatni his qiladilar.

## РОЛЬ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

**Озод Азимов**

преподаватель

Ургутский филиал Самаркандинского государственного университета

Ургут, Узбекистан

E-mail: [ozodazimov196@gmail.com](mailto:ozodazimov196@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Экоэстетические ценности, воспитание молодежи, защита окружающей среды, экологическое сознание, уважение к природе, устойчивое развитие, умственное и духовное воспитание.

**Аннотация:** Экоэстетические ценности играют важную роль в воспитании молодежи, так как оничат любить природу и защищать окружающую среду. Через эти ценности молодежь развивает экологическое сознание и осваивает принципы устойчивого развития. Уважение к природе, ценность ее красоты, забота о ее сохранении и изучение современных экологических проблем имеют большое значение для молодежи. Экоэстетическое воспитание также способствует умственному и духовному развитию, помогает молодежи научиться жить в гармонии с природой и осознавать свою глобальную ответственность.

### KIRISH

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab ekologik masalalar, atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslarni muhofaza qilish kabi masalalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarda, yosh avlodni ekologik ma'naviyatga, tabiatni sevish va unga hurmat ko'rsatishga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Ekoestetik qadriyatlar – tabiatni estetik, ma'naviy va madaniy jihatdan qadrlash, uning go'zalligini anglash va unga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ekoestetik qadriyatlarni yoshlar tarbiyasida singdirish, ularning ekologik ongini shakllantirish, atrof-muhitga bo'lgan ehtiromni oshirishga yordam beradi. Bunda ekologik kopetensiya muhim o'rinni tuadi. Zero, "Ekologik kompetensiyani imkoniyatlar. Bunday qarama-qarshiliklar ekologik faoliyatda hal etiladi. Ularning obyekti, predmeti va mazmuni ta'lim mazmuning tarkibiy qismalari sifatida taqdim etilib, ekologik kompetensiyani ko'rsatib o'tadi" (Abdujabborovna, K.S.(2021 y) Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining pedagogik shartlari. Bet. 158). Ushbu maqolada ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi roli, uning ahamiyati va kelajakka qanday ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritiladi.

## TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqotda ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi rolini aniqlash uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, adabiyotlarni tahlil qilish orqali ekologik tarbiya, ekoestetik qadriyatlар va yoshlar tarbiyasi bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar va tadqiqotlar o‘rganildi. Bu usul yordamida ekologik ta’limning nazariy asoslari va ekoestetik qadriyatlarning tarbiyada o‘rni haqida to‘liq tasavvur hosil qilindi. Darhaqiqat, A.N.Zaxlebniy, E.N.Dzyatkovskaya ekologiya muammolarini hal qilish, hayotni saqlab qolish va barqaror takror ishlab chiqarish sohasida talabalarning ekologik kompetensiyasi faqatgina fan ta’limining natijasi bo‘libgina qolmay, balki yaxlit umumiy madaniy ko‘rsatkich ekanligiga ishongan (Zokirova, S.M. (2019). Contrast Analysis Of Syntactic Layer Units. Scientific Bulletin Of Namangan State University, 1(8), Bet. 255.). tadqiqotda shuningdek, so‘rovnoma o‘tkazilib, yoshlarning tabiatga bo‘lgan estetik munosabati, ekologik ong va ekoestetik qadriyatlarni qanday anglashlari haqida ma'lumotlar yig‘ildi. Intervyu va fokus-guruh metodlari orqali yoshlar va ekologiya sohasidagi mutaxassislarining fikrlari o‘rganilib, ekologik tarbiya jarayonidagi eng samarali usullar aniqlangan. Eksperiment o‘tkazilib, o‘quv yurtlarida ekologik tarbiyanı rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va mashg‘ulotlarning samaradorligi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil yordamida analiz qilindi, bu esa tadqiqotning natijalarini yanada aniqroq va ishonchli qilib berdi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini va ularning ekologik ongini shakllantirishdagi samaradorligini ko‘rsatdi. So‘rovnoma natijalari shuni tasdiqladi, yoshlarning katta qismi tabiatga bo‘lgan estetik munosabatini o‘zgartirish va ekologik qadriyatlarni anglashda ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ekologik tarbiya dasturlari muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning 65% dan ortig‘i ekologik ta’lim jarayonlari orqali tabiatga bo‘lgan hurmat va mas’uliyatni oshirishlarini tan olgan. Biroq, tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning 40% atrof-muhitni muhofaza qilish borasida hali ham yetarlicha bilim va tushunchaga ega emasligini bildirdi, bu esa ekologik ta’limni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Eksperiment natijalari ekoestetik qadriyatlarni yoshlar orasida rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarning samarali ekanligini isbotladi. Maxsus tashkil etilgan ekologik faoliyatlar, masalan, tabiatga sayohatlar, arxitektura va san'at orqali ekologik ongni rivojlantirish, yoshlarning tabiatga bo‘lgan estetik qarashini kengaytirishga yordam berdi. Shuningdek, fokus-guruh va intervyu natijalari ekoestetik qadriyatlarni yoshlarning shaxsiy va jamiyatdagi mas’uliyat hissini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatdiki, ekoestetik qadriyatlarni nafaqat tabiatni sevish, balki ekologik muammolarni hal qilishga intilishni ham rag‘batlantiradi. Yoshlarda ekologik ongni shakllantirishda ekoestetik

ta'limning ahamiyati juda katta. Zero, Z.A.Zebzeevaning fikricha, faqatgina ekologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'libgina qolmay, aksincha, boshqa shaxsning qadr-qimmatini ham hurmat qiladigan, mehr oqibat, sezgirlik kabi tuyg'ularni namoyon eta oladigan shaxsni tarbiyalash jamiyatda katta ahamiyatga ega bo'ladi (Mizayeva N.A (2021) "Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillshtirish metodikasi" Bet. 7). Bu natijalar ekologik ta'lim va ekoestetik qadriyatlarni yoshlar tarbiyasida yanada chuqurroq rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

### MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu sohada hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar mavjud. Yoshlar orasida ekologik ongni shakllantirishda ta'lim tizimi muhim rol o'ynasa-da, ko'plab o'quvchilarining ekologik masalalarga bo'lgan qiziqlishi va bilim darajasi hali ham pastligini ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, ekologik ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Ekoestetik qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirishda faqat nazariy ta'lim emas, balki amaliy mashg'ulotlar, tabiatni sevish va ekologik faoliyatlarda bevosita ishtirok etish ham zarurdir.

Bundan tashqari, ekologik masalalarga bo'lgan befarqlik va to'g'ri ekologik odatlar hosil qilishdagi qiyinchiliklar, jamiyatdagi keng tarqalgan noaniqliklar va resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq. Tadqiqotda ekologik tarbiyaning samarali bo'lishi uchun o'quv muassasalarida ko'proq resurslar va o'qituvchilarini tayyorlash zarurligi ta'kidlandi. O'quvchilarini ekologik ongga ega qilishda ularning shaxsiy tajribalarini kengaytirish, masalan, tabiatga sayohatlar, ekologik san'at asarlari yaratish, atrof-muhitni asrashga qaratilgan loyihalarda ishtirok etish kabi amaliy faoliyatlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi roli faqat o'quv yurtlarida emas, balki oilalar va keng jamoatchilikda ham kengaytirilishi zarur. Ekologik madaniyatni rivojlantirish, yoshlarni ekologik mas'uliyatga o'rgatish jarayonida ota-onalarning ham faol ishtiroki zarur. O'z navbatida, bu jarayon yoshlar o'rtasida jamiyatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi roli keng ko'lamda ko'rib chiqilishi kerak va bu jarayonni yanada samarali qilish uchun ko'proq ilmiy tadqiqotlar va amaliy choralar kerak.

### XULOSA

Tadqiqot ekoestetik qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini chuqur o'rganib chiqdi va uning ekologik ongni shakllantirishdagi roli katta ekanligini ko'rsatdi. Ekoestetik qadriyatlarni nafaqat tabiatni sevish va unga hurmat ko'rsatish, balki ekologik muammolarga yechim topish uchun yoshlarni mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, ekologik tarbiya dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va

yoshlarning tabiatga bo‘lgan estetik munosabati orqali ularning ekologik ongini rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Biroq, yoshlar orasida ekoestetik qadriyatlarni to‘liq o‘rganish va ularga amaliyotda keng qo‘llanilishini ta’minlash uchun ko‘proq resurslar, ta’lim dasturlari va o‘qituvchilarini tayyorlash zarur. Shuningdek, ekologik tarbiya faqat o‘quv muassasalarida emas, balki oila va jamoatda ham rivojlanishi kerak. Yoshlarni ekologik muammolar haqida chuqurroq ma’lumotga ega qilish va ularni tabiatni asrashga undash uchun keng jamoatchilikka ekoestetik qadriyatlarni haqida tushuncha berish zarur. Zero, ekoestetika tabiat go‘zalliklarini sevishni, qadrlashni o‘rgatibgina qolmay, balki uning go‘zalligi va maftunkorligini yuzaga chiqarish omillarini ham tahlil qiladi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Misol uchun, gulni uzmaslik, payhon qilmaslik kerakligini bilish, uning havoni musaffoligini ta’minlashdagi roli va ahamiyati ekologik-biologik kompetensiya bo‘lsa, gulni parvarishlash jarayonida unga mehr berish va uning go‘zalligidan, xushbo‘y iforidan quvonish hissi ekoestetikaning bir ko‘rinishidir (Alijonova M. (2023). Bet. 62).

Shunday qilib, ekoestetik qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish nafaqat tabiatni asrab-avaylash, balki kelajak avlodning ekologik ongini shakllantirish uchun muhim vazifadir. Bu jarayonda har bir insonning mas’uliyati, ta’lim tizimi va jamiyatning umumiyligi sa’y-harakatlari alohida o‘rin tutadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ekoestetik qadriyatlarni yoshlarning jamiyatdagi mas’uliyatini oshirib, ularga ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdujabborovna,K.S. (2021 y) Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining pedagogik shartlari. Norasmiy ta’limda Yevropa innovatsiyalari jurnali.
2. Zokirova, S. M. (2019). Contrast Analysis Of Syntactic Layer Units. Scientific Bulletin Of Namangan State University, 1(8), 250-255.
3. Mizayeva N.A (2021) “Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillshtirish metodikasi”.
4. Alijonova M. (2023) Ekologik kompetensiya va ekoestetik kompetensiya tushunchalari, ilmiy sharhi, mohiyati. Yangi o‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi.